



**BUYUK MA'RIFATPARVAR OLIM
ABDURASHID IBROHIM**

Turdimirzayev Elyorbek Abduqayum o'g'li

O'zbekiston Xalqaro islom akademiyasi 2-kurs magistranti.

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.7820937>

ARTICLE INFO

Received: 03rd April 2023

Accepted: 11th April 2023

Online: 12th April 2023

KEY WORDS

Abdurashid Ibrohim, Rossiya musulmonlari, Usmonli davlati. Yaponiya, Islom, Sayohat, Jurnal.

ABSTRACT

XX asr ko'zga ko'ringan mashxur shaxsi Abdurashid Ibrohimdir. Abdurashid Ibrohim o'zining g'oyalari, diniy-siyosiy faoliyati va sayohatlari bilan turk, tatar tarixidagi ajoyib shaxsiyatdir. Uning Rossiya musulmonlarining manfaatlaari uchun olib borgan kurashlari alohida hurmatga loyiqdir. Bolaligini butun qiyinchiliklar bilan o'tkazgan Abdurashid Ibrohim, Madina shahrida tahsilini tamomlagandan keyin musulmon dunyosi muammolari va uning yechimlari haqida juda ko'p say-harkatlar qildi. U 1908-yilda Osiyoga qilgan uzoq safarida Yaponiya alohida o'rin tutadi. Abdurashid Ibrohim o'zining ajoyib shaxsiyati tufayli Yapon xalqi bilan samimiy munosabat o'rnataadi. U Yaponiya hukumati tomonidan maxsus mehmon sifatida qabul qilingan. U Yaponiyada yashagan vaqti davomida Yaponiyani diniy, siyosiy va ijtimoiy jihatdan o'rganishga harakat qilgan. U yerda deyarli har bir uchrashgan, muloqot qilgan yaponlarga Islom haqida gapirib berishni o'z burchi deb bilgan. O'z navbatida, u islomlashgan Yaponiya, Rossiya tomonidan bosib olingan tatarlar, turkistonliklar uchun kuchli tayanch bo'ladi deb o'yladi. Yaponlarning ma'naviy yetukligi, turk va musulmon xalqlariga yaqin bo'lganligi, sharq xalqi sifatida jadal sur'atlar bilan rivojlanib borishi uni ruhlantirgan omillardan edi. Abdurashid Ibrohim Yaponiyada davlat arbobi, harbiylar va jurnalist kabi jamiyatning ko'zga ko'ringan kishilari bilan muloqot o'rnatdi va ularning ko'pchiligiga Islom bilan tanishish imkonini berdi.

XX asrning buyuk olimi va sayyohi Abdurashid Ibrohim 1857-yil 23-aprel Rossiyaning G'arbiy Sibir mintaqasida joylashgan Tobolsk viloyatining Tara shahrida tavallud topgan. [1, P. 7] U o'zining tug'ilishi haqida "otam o'z qo'li bilan metrka daftariga (tug'ilish sanamni) qayd



qilib qo'yg'an" deydi. [2, P. 17] Ajdodlari asli o'zbek hisoblanib, to'rt asr oldin Buxorodan ko'chib kelgan va Taraga joylashib yashab qolishgan. Otasining ismi Umar Bey, onasining ismi Afifa xonim edi. Otasi o'z davrining siyosiy voqealariga aralashib, Sibir muxtoriyati uchun kurashgan kishi edi. Abdurashid Ibrohimning ota tomondan ham, ona tomondan ham otabobolari ziyoli kishilar bo'lishgan. Umar Bey o'g'liga yetti yoshga to'lmasdan qur'oni karimning bir nechta suralarini yod oldirgan. Onasi Afifa xonim Bashqurt tatarlaridan bo'lib, 40 yilga yaqin Tara shahrida qizlarga muallimalik qilgan. [2, P. 18] Otasi o'z davrining siyosiy voqealariga aralashgani uchun bor mol-mulkidan ayriladi va juda qashshoq bir holga tushub qoladi. Abdurashid Ibrohim yetti yoshidan Taradan 80 km uzoqlikdagi Avvush qishlog'idagi madrasada yotib ta'lim ola boshlaydi. Bu qishloqda sakkiz oy qolgandan keyin Taraga qaytadi. Keyingi yili onasining tashabbusi bilan o'zlariga juda uzoq bo'lgan Orenburg viloyatining Chilyabinsk sharhidagi bir Bashqurt qishlog'i bo'lgan Elmanga boradi. Abdurashid Ibrohim bu qishloqda to'rt yil ta'lim oladi. Bu qishloqda ta'limini davom ettirar ekan 1871-yilning boshlarida onasining vafot etganligi xabarini oldi va madrasadan ayrilib Taraga qaytishga qaror qildi. Lekin Tumen yaqinlariga kegan vaqtda qiyin qish holatlari sababli yo'lida davom eta olmay, Tumendagi bir madrasaga joylashdi va qishni o'sha yerda o'tkazdi. Bahorda yo'llarni ochilishi bilan Taraga ketadigan bir aravani kutub turishi asnosida otasining ham o'lim xabarini oldi. Tarada bo'lgan holasidan olgan bir maktub sababli Taraga borishdan voz kechib, Tumendagi madrasaga joylashishga qaror qildi. Holasi makubda kichik ukasini uning oldiga yuborishini va otalaridan hech bir meros qolmaganini yozgan. Abdurashid Ibrohim bu vaqtda 14, ukasi esa 12 yoshda edilar. [3, P. 19] Juda yosh yetim qolganlari yetmagandek, ularga yordam berib, qo'llab-quvvatlaydigan biror yaqin kishilari ham yo'q edi.

Bahorda yo'llarning ochilishi bilan ukasi ham oldiga keldi. Abdurashid Ibrohim va ukasi Tumendagi madrasada to'rt yil qolib ta'limini davom ettirdi. Yetti yoshidan beri madrasada o'qishiga qaramay, ko'p narsa o'rgana olmagan edi. Shundan so'ng ukasini tug'ilgan yeri Taraga yuborib o'zi esa maqtoovlarini eshitgan Qozon yaqinidagi Qishqar madrasasiga bordi. Bu yerda domla Ismoil mudarrislik qilgan madrasaga joylashdi. 1877-78 yillar Usmonli va Rus urushi boshlandi. Rossiyaning har tarafida ayniqsa turklar yashaydigan o'lkalarida juda qiyin vaziyat davom etardi. Bu vaqtda Abdurashid Ibrohimning pasportini muddati o'tib qolganligi sababli ushlanib qammoqqa tashlandi. Bir yilga yaqin qamoqda qolgandan so'ng ozod qilindi. U qamoqdaligida turli turk o'lkalaridan bo'lgan qardoshlari bilan Rossiyada qullikda yashagan musulmon turklarning holatlarini muzokara qildi. Chunki bu turk mahbuslarining juda ko'pi siyosiy va diniy jarayonlarga aralashgani uchun qamoqda edilar. Bu bir yillik qamoq Abdurashid Ibrohimga keyingi yillarda kirgan siyosiy kurashlariga juda katta foyda bo'lgan. [1, P. 11] Abdurashid Ibrohim qamoqdan chiqqandan keyin Taraga qaytib bir muddat u yerda qoldi. U Tarada bo'lgan vaqtida bezgak kasalligiga chalinib, bir oy yotoqda behush yotadi. Bir oydan keyin bu kasallikdan tuzalib oyoqqa turadi. [2, P. 61] 1878-yil oxirlarida Oqmulla viloyatiga borib, bu yerda bir muddat imomlik qiladi. Lekin bu ishidan xursand emas edi. Chunki u tahsilini davom ettirishni xohlar edi. Shuning uchun u harakat qilib 1879-yil avgust oyida Madinaga borish uchun Odessa orqali Istanbulga keldi. Faqat puli tugab qolgani uchun yo'lida davom eta olmay bir muddat Istanbulda qoldi. Bu vaqtda u hajga ketayotgan Shahobiddin Marjoniy va ba'zi tatar boylari bilan uchrashdi. Lekin bu shaxslarning unga hech qanday yordami tegmadi. Keyinroq Rossiyadan kelib hajga ketmoqchi bo'lgan bir tatar



boyining xizmatiga kirib, uning hamrohligida dengiz yo'li bilan Arabistonga bordi. [1, P. 12] Makkada bir necha kun qolgandan keyin Madina tomon ketdi. Abdurashid Ibrohim 1880-yilda Madinada diniy ta'limini boshladi. U bu yerda diniy ta'limdan tashqari siyosiy ilmlarni ham egallagan. Chunki u Madinada bo'lgan vaqtda har yil haj farzini ado etardi. Shuning uchun dunyoning har tarafidan kelgan musulmonlar bilan ko'rishib, musulmon dunyosining muammolarini o'rganar, hol choralari tushunar edi. Abdurashid Ibrohim Madinada fiqh, hadis va qiroat kabi diniy ilmlardan tashqari arabcha va forschani ham juda yaxshi o'rgandi. Madinada besh yilga yaqin ta'lim olganidan so'ng bir ijozatnoma olib ta'limini yakunladi. 1880-1884 yillar Madinada ta'lim olgan Abdurashid Ibrohim 1885-yil Tara shahriga qaytib keldi. [4, P. 76] Tarada bir oz dam olgandan keyin Tara xalqining istagi bilan u yerdagi madrasada dars berishni boshladi. Shu yili Taraga oldinroq kelgan oilalardan birining qizi bilan turmush qurdi. Bu turmushdan Munir Ahmad, Qadriya va Favziya ismli uch farzandi dunyoga keldi. Tarada olti oy qolgandan keyin, qarindoshlarining bazi bolalarini o'qishga Madinaga olib ketish uchun yo'lga chiqdi. [5, P. 48] Odessa orqali Istanbulga keldi. Istanbulda muorif noziri Munif Posho bilan ta'lim masalalari yuzasidan bir necha marta uchrashdi. Bolalarni Madinaga olib borgandan keyin qayta Istanbulga keldi. Yana ta'lim masalasiga oid turli muloqotlarda qatnashganidan keyin 1885-yil noyabrda Taraga qaytib keldi. Abdurashid Ibrohim Tarada bir "usul-i jadid" maktabini ochib o'quvchilarga ta'lim berishni boshladi. U maktab uchun yangi o'quv matiriyallarini birodari Ismoil Gaspiralidan oladi. U Tarada yetti yil qoladi. Bu vaqt davomida Turkiya, Hijoz, Misr va bazi Yevropa o'lkalaridagi do'stlari bilan maktublashib ma'lumotlar almashadi. Abdurashid Ibrohim maktublashib fikr almashgan kishilardan eng buyuklari Shahobiddin Marjoniy, Rizoiddin Fahriddin va turk olamining eng mashxur nomi Ismoil Gaspiralidirlar. Abdurashid Ibrohim 1890-yilda Taradan yoniga o'n talaba olib Istanbulga keldi. Ularni "Doruhshshafaka va Doruttadris" maktablariga joylashtirdi. U Taraga qaytib kelib, mudarrislik ishlarini davom ettirdi. Abdurashid Ibrohim 1891-yil Ufaga keldi, Ufadagi "Orenburg Shar'iy Mahkamasi"da rus tilidan imtihon topshirdi va 1892-yil "Orenburg Diniy Majlisi" uni qozi etib tayinladi. [1, P. 18]

Orenburg Shar'iy Mahkamasi bitta rais va uch a'zodan iborat edi. 1893-yil mahkama raisi Muhammadyor Sultonov hajga ketganligi uchun Abdurashid Ibrohim mahkama raisligiga tayinlandi. U sakkiz oy mahkamaga raislik qiladi. Mahkama raisi bo'lgan vaqtda Ufadagi yetim va faqirlar uchun bir jamiyat tuzib, bu jamiyatda o'zi ko'ngilli bo'lib ishladi. Bu vazifa asnosida u Petrburgga bordi va ichki ishlar va maorif vazirlari bilan uchrashib, Rossiya musulmonlari muammolarini hal qilishga harakat qildi. Faqat bu vazifani uddalay olmagandan keyin mahkama raisligidan iste'fo berdi. Bu holatda Rossiyada qolish tahluka tug'dirishiga qanoat hosil qilgan Abdurashid Ibrohim 1897-yil Istanbulga keldi.

Abdurashid Ibrohim Ufada bo'lgan vaqtlarida qalamga olgan "Liva ul-Hamd" nomli risolasini Istanbulda nashrdan chiqarib, Rossiyaga olib borib tarqattirdi. Bu risolada Abdurashid Ibrohim Rossiya zulmi ostida yashayotgan turklarni Turkiyaga ko'chib kelishga chaqirar edi. [1, P. 20] Shu vaqtda va keyingi yillarda 70 ming tatar Turkiyaga ko'chib kelgan.

Abdurashid Ibrohim 1888-yil boshlarida Istanbuldan Buxoroga sayohatga chiqdi. Buxoro o'lkasidagi turk yetakchilari bilan uchrashib, Rossiyada yashayotgan turklarning siyosiy va madaniy holatlariga tushub qolmasliklari uchun birgalikda mujodala etish kerakligi to'g'risidagi fikrlarini o'rtaga tashlaydi. Buxorodan Istanbulga qaytdi. U Rus satsiolistlaridan



bo'lgan V. Amfiteatrovning Shvetsariyada ekanligini bilgandan keyin Istanbuldan Shvetsariyaga bordi. U V. Amfiteatrov bilan uchrashib Rossiyada yashayotgan musulmon turklarining siyosiy va madaniy huquqlarini berilishini talab qildi. Shvetsariyada bir necha oy qolgandan keyin, Istanbulga qaytdi. Lekin u Rossiyaga qarshi yuritgan faoliyatlaridan Usmonli davlati huzursiz bo'la boshlaganini bilgandan keyin, Istanbuldan ayrilib Misr, Hijoz, Falastin, Italiya, Avstrya, Fransiya, Bolgariya, G'arbiy Rossiya, Kavkaz, Mavorunnahr, G'arbiy Turkiston, Sharqiy Turkiston, Yetti Suv viloyati, Sibr mintaqalarining turli yerlarida bo'lib, so'ngra, tug'ilgan yeri Taraga keladi. Abdurashid Ibrohim Tarada bir muddat qolganidan so'ng Yaponiyaga boradi. Yaponiyada ba'zi aloqalarni o'rnatgandan so'ng 1900-yilning oxirida Petrburgga boradi. U Petrburgda nashr faoliyatiga kirishib "Mir'at" nomli jurnal chiqarishni boshlaydi. Mir'at jurnalining birinchisi risolasi 1900-yil chiqa boshlaydi va 1909-yil chiqqan 22-soni bilan yopiladi. [3, P. 11]

Abdurashid Ibrohim 1902-1903 yillar takror Yaponiyaga borib Ruslarga qarshi tashviqotga qo'shildi. Lekin rus elchisining iltimosi bilan uni Yaponiyadan ketishi talab qilindi. U Yaponiyada bo'lgan vaqtida usmonli sultoni Abdulhamidxon II dan Yaponiyada islom dinini tarqatish uchun yordam so'raydi. Sulton Abdulhamidxon bu maktub haqida quydagi so'zlarni aytadi: *"Yaponlarning ruslarga qarshi g'alabalari arafasida edi. Yapon imperatorlik oilasiga mansub bir shahzoda meni ziyoratimga keldi. Imperatordan mahsus bir maktub olib kelgan edi. Mendan islom dining mazmunini, imyon asoslarini, g'oyasini, falsafasini, ibodat qoidalarini tushuntirib beradigan dini-ilm hayatinini istadi. Buning sababi bor edi, u yerda islom dinini tarqatishni muqaddas vazifa bilgan Abdurashid Ibrohim ismli asli Qozonlik bo'lgan bir musulmon olimidan maktub olmish Yaponiyadagi islom harakatlariga to'liq yordamchi bo'lishimni istagandi. Islom olamining xalifasi edim, bir tarafda fahrlanganim va xizmatkor bo'lishga harakat qilganim bu oliy vazifa, boshqa tomondan, qalbmida bu sharaflilikni xizmatni sog'inchi bilan, qo'limdan kelgan hamma narsani qildim. Lekin bu yordamim moddiy sohada qoldi holos. Chunki Abdurashid Ibrohim bizning din odamlarimmizdan boshqa shaxs edi. Turkcha, arabcha, forschadan tashqari ruscha va yaponchani bilardi. Qirq yoshidan keyin fransuzcha va lotinchani o'rganganini yozgan edi".* [8, P. 190] Bu so'zlarni Sulton Abdulhamid Salonika orolida surgunda ekanligida qo'riqchilaridan biri Ali Fathi Beyga aytgan. U esa yuqoridagi gaplarni xabarini bergan.

Abdurashid Ibrohim 1905-yil yaponlar ruslar ustidan qozongan g'alabasidan juda hursand bo'ladi. Bundan tashqari yaponlarning 1905-yil ruslar bilan qilgan janglarida asir tushgan musulmon turklariga yaxshi munosabatda bo'lishlari uni juda sevintirdi. U Rossiya musulmonlarini va g'arb bosqini ostida yashagan musulmonlarni faqat yaponlar yordamida qutqarishga ishonardi.

Abdurashid Ibrohim 1904-yilning bahorida Istanbulga keladi. Biroq uning Yaponiyada qilgan ishlari va oldingi yillarda Istanbulda bostirib Rossiyada tarqatgan risolalari va yana Istanbulda Rossiya musulmonlari manfaati uchun qilgan ishlaridan xavotirlangan Rus hukumati elchisi Usmonli davlatidan Abdurashid Ibrohimni hibsga olishni iltimos qiladi. Abdurashid Ibrohim ushlanib rus amaldorlariga topshiriladi. U 1904-yil 12-avgust Odessaga keltirilib qamoqqa tashlanadi. Ikki haftaga yaqin qamoqda saqlangandan keyin Rossiya turklarining rus hukumatiga o'tkazgan bosimi tufayli qamoqdan ozod qilinadi. [1, P. 25]



1905-1906-yillar esmoqchi bo'lgan ozodlik shamoli, yapon mag'lubiyati va ortidan natijasiz inqilobga urinish bilan birlashib, rus podshohligining inqirozini boshlab bergan yillar edi. Bu vaziyatdan foydalanishni ko'zda tutgan va Rossiya musulmonlari uchun hayajonni his qilgan kishi Abdurashid Ibrohim bo'ldi. U ilk marta parlament bilan tanishmoqchi bo'lgan Rossiya musulmonlarining 1905-yilgi saylovlari haqida xabardor qilish uchun Rossiya va Turkistonning turli hududlarini kezib chiqdi. Abdurashid Ibrohim I, II, III, musulmon qurultoyini tashkil etishni ta'minlagan asosiy kishilardan biri sifatida muhim bir vazifa bajargan. [5, P. 53]

Ruslarning 1904-1905-yillardagi rus-yapon urushida mag'lubiyatga uchrashi siyosiy rejimga muholif kishilarga va podshohlik hokimiyatida yashayotgan millatlarga mahfiy tarzda olib borayotgan siyosiy faoliyatlarini ochiqcha davom ettirishga imkon berdi. Hali urush davom etarkan Rossiyada muxolif guruhlarining vakillari 1904-yil oktyabrda Maskvada, noyabrda Petrburgda shahar boshqaruvchilari bilan tashkil qilingan majlisda bazi qarorlar qabul qildi. Moskva majlisining qarorini qo'lga olgan Abdurashid Ibrohim bundan ilhomlanib o'sha vaqtda ichki ishlar vaziri bo'lgan Svyatapolk Mirskiy oldiga, ya'ni Petrburgga borib, Rossiya turklarini talabini bildirdi. Talablarini ijobiy qabul qilgan vazir bunga shaxsan o'zi bosh bo'lishini xohladi. Buning natijasida 1905-1917-yillarda besh marta musulmon qurultoylari bo'lib o'tadi. [9, P. 96]

Abdurashid Ibrohim Petrburgdan qaytgach, Ufadagi Orenburg diniy boshqarmasini yangitdan tartibga solish, ma'muriy kengash sonini orttirish, idora xarajatlarini qoplash maqsadida qur'oni karimni faqat shu muassasa tomonidan chop etilish, maktab va madrasalarni shu idora bilan bog'lash, har bir viloyatda idoraning sho'balarini ochish kabi takliflar bilan bir loyha tayyorlab kengashga taqdim qildi. Biroq, kengash a'zolari tomonidan bu loyiha bir hayol sifatida qabul qilindi. Abdurashid Ibrohim bundan tushkunlikga tushmay, o'zining g'oyalarini amalga oshirish uchun harakatini to'xtatmadi. 1905-yil 21-aprel Petrburgda Abdurashid Ibrohimning uyida yig'ilgan Ali Mardon To'pchiboshi, Ayao'g'li Ahad, Ali Husaynzoda, Muhammad Alim Maqsud, Bunyamin Ahmedov kabi kishilar bitta partiya tuzishga qaror qildilar. Qrimdan Petrburgga kelgan Ismoil Gaspirali ham bu fikrga qo'shildi va ilk qurultoyi Nijni Novgord shahrida o'tkazishga qaror qilinadi. Biroq, shahar hokimi bu majlisga ruxsat bermaydi. Shundan so'ng qurultoy Oka daryosida bir kemada o'tkaziladi. Bu qurultoy rahbarligiga Ismoil Gaspirali saylanadi. [9, P. 96] Hokim tomonidan bu majlisga ruxsat berilmaganligiga munosabat bildirib Ali Mardon To'pchiboshi quyidagi mashhur gapni aytadi: "Agar bizga qurultoy o'tkazishga daryoda ham ruxsat berilmaganda edi Osmonda bo'lsa ham o'tkazgan bo'lar edik". Bu qurultoy Rossiyada yashagan suniy va shia musulmonlarining birinchi marta bir yerga to'planishi edi.

Abdurashid Ibrohim 1906-yil uchinchi musulmon qurultoyi tugashi bilan Petrburgga qaytdi. U yana nashr faoliyatini davom ettirib "Ulfat" nomli gazetasida yozgan maqolalari bilan musulmonlarni birlikka chaqirishda davom etdi. Biroq, rus hukumati ham uning nashr faoliyatini kuzatib bormoqda edi. "Ulfat" gazetasi 85-sonidan e'tiboran chiqishi ta'qiqlandi. Abdurashid Ibrohim bundan ortga chekinmasdan yangi gazeta chiqarish uchun qozoq ziyolilari bilan aloqa o'rnatdi. Yangi gazeta 1907-yil 9-iyun oyida "Rahbar" nomi bilan chiqq boshladi. Bundan tashqari 1907-yil iyun oyida "Najot" nomli diniy va siyosiy jurnal ham chiqardi. Lekin bu jurnal chiqqan kun rus hukumati Abdurashid Ibrohimni matbaasini bosib



uni qamoqqa olishni istadi. Bu vaziyatdan oldinroq xabar topgan Abdurashid Ibrohim Petrburgdan ketishga majbur bo'ldi. U Petrburgdan ketgandan keyin Buxoro, Samarqand, Farg'ona, Yettisuv, Olmota, Yettitosh o'lkalariga bir yillik sayohatga chiqdi. Bu mintaqalardagi musulmon-turk ziyolilari bilan uchrashib rus hukumatiga qarshi birlikda mujodala etishga chaqirdi. Bundan tashqari o'lkalardagi madrasalarda aylanib yurib yangi ta'lim sistemasi "usul-i jadid" bilan ta'lim berishlari uchun harkat qildi. [1, P. 51] Markaziy Osiyoda sayohatini tugatgandan so'ng Taraga qaytadi. Bir muddat Tarada bo'lgandan so'ng oilasini ham oldiga olib Qozonga boradi. Qozonga borishi bilanoq siyosiy faoliyatini boshlab, to'rtinchi musulmon qurultoyini to'planishini ta'minladi. Bu yig'ilishga ruhsat olinmagani uchun bu majlis ham daryo ustida o'tkazildi. To'rtinchi musulmon qurultoyi nihoyasiga yetgandan keyin Abdurashid Ibrohim uzoq muddatli bir sayohatga chiqishga qaror qiladi. Chunki rus hukumatining unga bosimi kundan-kun ortib bormoqda edi. U 1908-yil 16-sentabr sanasida buyuk sayohatni boshladi. Qozondan daryo yo'li orqali Ufaga keldi. Ufada bir necha kun qolgandan keyin Chilyabinskga bordi. Chilyabinskdan temir yo'l orqali Petrapavlovsk (Qizil Yar) ga keldi. U yerdan Omsk, Tomsk, Irkutsk yo'li bilan Mo'g'ilistonga keldi. Mo'g'ilistondan Manjuriyaga u yerdan, Harbinga, u yerdan Vladivastokga va u yerdan kema bilan Yaponiyaga keladi. Abdurashid Ibrohim sayohatlarining eng muhim qismi Yaponiyaga sayohat hisoblanadi. U Yaponiyada yetti oy qolgandan keyin sayohatini davom ettiradi. U Koreya, Xitoy, Singapur, Hindistonga sayohat qilgandan so'ng yapon musulmon do'sti Umar (Yamaoka) bilan Hijozga boradi. U yerda haj amalini bajarib Hijoz temir yo'li orqali Bayrutga, u yerdan kemaga minib 1910-yilning boshlarida Istanbulga keladi. [1, P. 67] Tashqi nazorat boshqarmasiga ariza berib Usmonli vatandoshligini (fuqoroligi) olishni xohladi. U 1912-yilda Usmonli vatandoshligini qabul qildi. Abdurashid Ibrohim bu vaqtga kelib uch yillik sayohatidagi tafsilotlarini "Olam Islom Yaponiyada islomning tarqalishi" asarida qalamga olishni boshladi.

Abdurashid Ibrohim Istanbulda Sulton Ahmed masjidiga yaqin bir uyga joylashgan edi. U bu yerda ham bo'sh turmadi. Bir tarafdin bosh muharriri Mehmed Akif bo'lgan "sirotulmustaqim" va "seblurrashod" jurnallarida maqolalar chop etar, ikkinchi tomondan "taarruf-i muslimin" nomi bilan bir jurnal chiqaradi. [10, P. 290] Endi Abdurashid Ibrohim Trablus tomon yo'lga chiqadi. Italiyaliklar 1911-yil Turkiyaga qarshi urush e'lon qilib Livianing ayrim hududlarini bosib oladilar. [11, P. 135] Abdurashid Ibrohim italyanlarni Trablusni ishg'ol qilganlari uchun 1911-yil ramazon bayramida Rimga borib italyanlarga protes berishni o'yladi. Biroq, undan ko'ra Trablusga borishi foydalikroq bo'lishini tushunib u yerga borishga qaror qildi. U Trablusga borishini shunday anglatadi; *"Kutilmagan hodisalar boshlar-boshlamas hamma "darul harb" ga ketishni boshladi, men ham turmadim, bir otash qalbimni qopladi. U yerga bormasdan tura olmadim, men o'zi qari kishiman, qo'limdan biror narsa kelmaydi, faqat hech bo'lmasa mujohidlarga suv tashish keladi"*. [1, P. 70] Abdurashid Ibrohim Trablusga borish uchun Istanbuldan kema bilan Misrga keldi. Misr bu vaqtda Ingilizlar nazoratida bo'lgani uchun Ingilizlar Trablusga bormoqchi bo'lgan ko'ngillilarni sohil bo'yidan o'tkazishmayotgan edilar. Avtomagistral yo'li esa juda uzoq va cho'llardan iborat edi. Bu yerdan Abdurashid Ibrohim arab kiymlarini kiyib, Misr bilan Liviya orasidagi Sallum shahriga keldi. Sallum u paytda usmonlilar nazorati ostida edi. Bu bir muddat turib Dernaga bordi. Abdurashid Ibrohim Derna, Bingazi, Tobruk, Trablus jabhalarida bo'lib, bu yerdagi



to'qnashuvlarda qatnashdi. Bingazi jabhasida bo'lgan vaqtida Anvar Posho bilan tanishib do'stlashdi. Anvar Posho bilan 40 kun bitta jabhada bo'ldi. Abdurashid Ibrohim Anvar Posho haqida: *"Anvar Posho hizr kabi hammadan oldin keldi, eng katta vazifani u bajardi. Yo'q yerdan bir qo'shin tashkil qilib buyuk va shonli millatimmizning nomus va sharafini butun jahonga tanitdi. Milyonlarcha arablarning qalbida posholik unvonini oldi"* [1, P.71] deydi. Abdurashid Ibrohim Trablusda besh oy qolgandan keyin Istanbulga qaytdi. Trablus jangi haqida bergan konferensiyalari katta shuhrat qozondi. [10, P. 291]

Abdurashid Ibrohim 1912-yilda Usmon Judi bilan birgalikda "islom dunyosi" nomli bir jurnal chiqarib, ta'lim, Rossiya musulmonlarining holati va islom dunyosi bilan aloqador maqolalar jop etdi. 1912-yil Bolqon urushining boshlanishi va Edirnani dushman qo'lga o'tishi butun islom dunyosini qayg'uga botirdi. Abdurashid Ibrohim o'sha vaqtda chiqarayotgan islom dunyosi jurnalida, bu yerlarni yo'qotilmasligi uchun dunyo musulmonlarini urushga chorlaydi. Yaponiya, Xitoy, Hindiston, Singapur, Indaneziya va Malaziyadagi do'stlariga maktub yozib, ularni yordamga chorlaydi. Har tarfdan moddiy yordam va ko'ngillilar to'plangani xabari keladi. [10, P. 292] 1913-yil 10-iyul kuni Edirna ozod qilindi.

Ruslar 1914-yil 1-noyabr kuni Shimoli Anadoluni ishg'ol qilishlari ustiga Abdurashid Ibrohim Anvar Poshoni oldiga borib urush jabhasi ichida turk askarlariga ma'nan yordam berishga harakat qildi. Bundan tashqari Rossiya saflarida jang qilayotgan musulmon turklarning turk armiyasi qo'shilishga davat qilishga harakat qildi. Lekin bu unchalik muvaffaqiyatli chiqmadi. Ochlik, hastalik va urush uchun yaxshi reja tuzilmaganligi sababli turk armiyasi katta yo'qotishlar bilan chekinishga majbur bo'ladi. Bu holat Abdurashid Ibrohimni chuqur qayg'uga botiradi. Shu ondayoq Istanbulga qaytib "Turk-Tatar musulmonlarini haqlarini himoya qilish qo'mitasini" tuzish harakatida bo'ldi. Bu qo'mitani tashkil qilish uchun usmonli davlati butun moddiy va ma'naviy imkoniyatlarini safarbar qildi. Bu qo'mita "Kavkaz, Turkiston, Qrim, Qozon va bosib olingan xalqlarni haq-huquqlarini qaytarib berish uchun mujodala etishni ko'zda tutardi.

Birinchi jahon urushi davomida Nemis askarlari, Rossiya bilan qilgan janglarida juda ko'p sonda asir oldilar. Bu asirlar orasida Tatar va Bashqurt turklari ham bor edilar. Ular Berlin yaqinidagi "Zossen" nomli bir asir lageriga joylashtirilgan edilar. Germaniya va Usmonli davlati bir safta turganliklari sababli nemislar bu musulmon asirlariga yaxshi munosabatda bo'lishayotgan edilar. Nemis va Usmonli hukumatlari o'zaro olib borgan muzokaralardan so'ng bu musulmon asirlardan jang asnosida foydalanishni reja qilindi. Anvar Posho Abdurashid Ibrohim bilan uchrashib Germaniyaga borib bu asirlarni Usmonli davlati safida jang qilishlariga ko'ndirishni so'raydi. Abdurashid Ibrohim bu vazifani mamnuniyat bilan qabul qilib Berlinga boradi. Abdurashid Ibrohim Berlinda musulmonlar joylashtirilgan Zossen lageriga borib halifa jihat e'lon qilganligini musulmonlar qiyin kunlarda bir-birlariga yordam etishlari kerakligini, bu jangda Usmonli davlati g'olib kelgan taqdirda Rossiyada yashagan turklar hurriyatga qovushishlarini so'ylab ularni Usmonli imperatorligi safida ingliz va hatto ruslarga qarshi urushga chaqirdi. [1, P.75-76] Abdurashid Ibrohim lagerda bir masjid ochilishini ta'minladi. Ayniqsa juma kunlari o'zi shu masjidida imomlik qildi. Uning bu chaqiriqlari natijasida lagerda bo'lgan asirlarni juda ko'pi Usmonli davlati safida jang qilishga qaror qildi. Bu asirlardan "Osiyo batalyoni" nomli bir batalyon tuzildi. Ularni Istanbulga olib



kelindi. Bu batalyon Istanbulda bir necha kun turgach Iroq jabhasiga borib ingilizlarga qarshi janga tashlandi. Urush tugagandan so'ng bu asirlarni bazilari Turkiyaga joylashdi, bazilari Abdurashid Ibrohim yordami bilan Yaponiyaga ketadi va bazilari turli yo'llar bilan Rossiyaga qaytariladilar.

Abdurashid Ibrohim Berlinda bo'lgan vaqtida o'zini Stokgolumda tashkil qilingan "Rossiyadagi xorijiy millarlar jamiyati"ning Rossiya musulmonlarining vakili etib tayinlanganini bildi. Keyin may oyini boshlarida Berlindan Stokgolumga bordi. Bu jamiyat 1916-yil 18-may kuni Stokgolumdan Amerika prizidenti Vilsonga bir telegraf yuborib, Rossiyada yashagan millatlar yo'q bo'lib ketish xavfi bilan yuzma-yuz turganliklarini bildiradi. Bu telegraf Abdurashid Ibrohim, Yusuf Oqchura, Ali Husaynzoda, Ahmad Ayao'g'lu tomonidan imzolangan. Abdurashid Ibrohim may oyini oxirida Stokgolumdan Berlinga qaytdi. Undan so'ng Qozondagi oilasini Berlinga olib kelib joylashtiradi. Shundan so'ng Lozanga borib "Rossiyaga asir millatlar konferensiyasi"ga qatnashdi. Bu yerdagi muloqotlarda Rossiya musulmonlarning siyosiy va diniy huquqlarini berilishini va Turkiyaga uyushtirilayotgan bosqinni to'xtatishga harakat qildi. [1, P. 77] Abdurashid Ibrohim Lozandagi muloqotlar tugagandan keyin Berlinga qaytdi. Berlindan xristian olamining rahbari papaga maktub yo'llab Rossiyada yashayotgan turklarga yetkazilayotgan zulm va bosqinni tilga oldi. Bir muddat Berlinda qolgandan keyin Istanbulga keldi.

1918-yil 8-oktyabrda Turkiyada Talat Posho hukumati iste'foga berib, 30-oktyabrda Usmonli imperatorligi Mondoros shartnomasini imzolashi Rossiyadan kelgan turk ziyolilarini juda hayratlantirdi. Chunki Talat Posho hukumati Rossiya musulmonlariga moddiy va ma'naviy jihatdan katta dastak berayotgan edi. Usmonli davlati Mondoros shartnomasini imzolashi Turkiyani o'zidan boshqa hech kimga yordam bera olmaydigan holga tushurib qo'ydi. [1, P. 81] Shu yil Abdurashid Ibrohimning ayoli vafot etdi. Boshqa Istanbulda qolishni xohlamadi, tug'ilib-o'sgan va yoshligi o'tgan yerlarni sog'ingan edi. Abdurashid Ibrohim vatan hasratini qondirish uchun Berlindan oilasini Istanbulga olib kelib, o'zi yurti tomon yo'lga chiqadi. Rossiyada inqilob kunlari davom etmoqda edi. Abdurashid Ibrohim Maskvadan Petrburga borganida oldin juda yaxshi bilgan shahrini taniy olmay qoldi. Ko'chalar hayvon o'liklari va inson jasadlari bilan to'la edi. Taraga qaytib bitta o'g'il bolalarga, bitta qiz bolalarga maktab ochadi. Xalq bilimga och edi. Yoshiga qaramasdan butun shaharning erkaklari-yu ayollari birgalikda o'qishga shoshildilar. O'sha vaqtda bolsheviklar maktablarni yopishgan, o'zlaridan bo'lmaganlarni masxaralab, ochlikdan o'lishlarini ta'minlashgan. Abdurashid Ibrohim sekin-astalik bilan o'z kurashini davom ettirib, Tarada ikki yil qoladi. [10, P. 292]

1917-yil inqilobda tayyorgarliksiz qo'lga olingan rus turklari o'zaro to'la birlikka erisha olmagan edilar. Bolsheviklar boy turk musulmonlarini butun boyliklarini tortib olib, milyonlarcha insonni ochlikga mahkum etdilar. Ayniqsa Idil-Ural mintaqasida ochlikdan yuzaga kelgan o'lim xabarlarini Istanbulga qadar yetib boradi. Abdurashid Ibrohim bu vaqtda Maskvada edi. Hukumatning ruhsati bilan Maskvada bir yordam markazi ochildi. G'arb o'lkalariga murojat qilib Abdurashid Ibrohim tomonidan bir yordam so'rovi tayyorlandi. Yordam qo'mitasi Turkiyaga ham vakil yuborib yordam so'rashga qaror qilindi. Bu qarorga Abdurashid Ibrohim qat'iy qarshilik ko'rsatdi. U qarshilik ko'rsatish sababini ochiq qildi: *"Urush yillari dushman tarafida katta kuch bo'lib, Turkiya ustiga minglarcha askarimizni safarbar qildik, yerlarini, yurtlarini xarob qildik. Istiqloq muhorabalarida uzoqdan tomoshabin*



bo'ldik. Aslida u vaqtda Turkiya turklariga yordam berish bizga farz edi. Murojat qiladigan bo'lsak so'ngi luqmalarini ham Turkiya turklari bizga beradi, lekin biroz uyalishimmiz kerak". [1, P. 91] Abdurashid Ibrohimning bu qarshiligiga qaramasdan yordam qo'mitasi hay'ati Turkiyaga ikki vakilini yubordi. Vakillar Istanbulda juda yaxshi holatda kutib olinib, 20 ta katta vagonda yordam mahsulotlarini yubordilar. Turkiya hukumati shaxsan o'z askarlari bilan bu mahsulotlarni Idil-Ural mintaqasiga yubordi. Bu yordam vazifasida bo'lgan bazi turk askarlari sovuq -40 darajaga tushib ketganligidan kasallanib vafot etdilar.

Abdurashid Ibrohim Maskavda bo'lgan yillarida Lenin va Stalin bilan yaqin munosabatlar o'rnatdi. Turkiya, Eron va Afg'anistondan Kremlga kelgan kishilarga tarjimonlik ham qildi. Bu vaqtda bolsheviklar musulmon turklarning mol-mulklarini talon-taroj qila boshladilar. Abdurashid Ibrohim bu tajavuzlarni oldini olish uchun juda qattiq harakat qildi. Abdurashid Ibrohim 1923-yil bahor oyini boshlarida Moskvadan ketishga majbur bo'ldi. Chunki bolsheviklar o'ziga ishongan kishilar va ayniqsa tatarlar ziyolilariga qarshi bir tozalovni boshlagan edilar. Bu vaziyatda u yerda qolish Abdurashid Ibrohim uchun juda tahlikali edi. Abdurashid Ibrohim Moskvadan Istanbulga qaytadi. U yerdagi oilasini olib Ko'nyaga joylashadi. Abdurashid Ibrohim Konyadagi Jihanbeyli tumanining Bo'yridelik qishlog'ida 1925-33-yillar davomida istiqomat qiladi. Jihanbeyli tumanidagi Bo'yridelik qishlog'i sibir tatarlar ko'chib kelgan birinchi qishloqdir. [13, P. 174] U qishloqda ham bo'sh turmaydi. O'quvchilar yetishtiradi, chorvachilik bilan shug'illanadi, fursat topishi bilan islom dunyosining muammolarini tiliga olgan asarlar yozadi. Biroq asarlari o'zgarishga uchragan Turkiya hukumatida nashrda chiqarish mumkin emas edi. [10, P. 293] U 1929-yil Turkiya respublikasi fuqoroligini oladi.

Abdurashid Ibrohim 1929-33-yillar davomida Istanbul, Qohira va Hijozga qisqa muddatli safarlarga chiqdi. U yoz oylarida Konya va Istanbulda vaqtini o'tkazar edi. Bu vaqt davomida u islom dunyosi bilan bog'liq asarlar yozgan. U 1933-yil Tokiyoda yashagan musulmonlarni rahbari Imom Qurbonaliga yozgan bir maktubida, yozgan asarlarini Turkiyada bostirishni imkoni yo'qligini bildiradi. Oilasi va do'stlari oldida kechirgan bu go'zal kunlarga qaramasdan uning aqlu-hayoli Yaponiyada edi. Uning fikricha uzoq sharqda islom dini uchun yangi maydon ochish umidi bor edi. U o'ylaydiki, *"agar yaponlar islom dinini qabul qilsalar butun dunyo musulmonlari Yapon imperatoriga qasamyod qilishadi va halifalik markazi Tokiyo bo'ladi"* [1, P. 95] derdi.

Abdurashid Ibrohim 1933-yil Yaponiyaning Istanbuldagi elchixonasida Yaponiya quruqlik kuchlari harbiysi bo'lib ishlagan podpolkavnik Masatane Kandaning (1890-1983) taklifi bilan Tokiyoga ko'chib kelgan. [12, P. 35] Abdurashid Ibrohimni Yaponiyaga borishiga qaysi sabablar majbur qilganligi aniq emasligi bilan birga, qizi Sabohat Baltayning ifodasiga ko'ra va Tokiyodan ayoli Ayan honimga yuborgan maktubida majburlikdan ketganligini yozgan. Chunki Abdurashid Ibrohimning sog'ligi yaxshi emas edi, buning ustiga yoshi ham ancha keksa edi. Bu holatda yakka o'zi sayohatga chiqishini izoh etish mumkin emaski, u ayni paytda qurilgan Turkiya respublikasiga juda yomon munosabatda edi. Abdurashid Ibrohim 1933-yil 12-oktyabrda Tokiyoga yetib keldi. Tokiyoda bo'lgan yapon do'stlari uni hushnudlik bilan kutib oldilar.

Abdurashid Ibrohim Yaponiyaga keliboq o'z faoliyatini boshlab yubordi. 1909-yil qurilishi rejalashtirilgan ammo turli sabablarga ko'ra qurilmay qolgan Tokiyo jomesini tamal



toshini qo'yadi. 1909-yildan beri pul yig'ilar edi. Bundan tashqari Hindistonlik, Qozonlik va turli o'lkalardan musulmon savdogarlar va yapon musulmonlari jome uchun yetarlik miqdorda pul yig'ishgan edi. 1937-yil Tokiyo jomesi katta tantanalar bilan ochildi. Abdurashid Ibrohim jomeni ochilishi uchun harakat qilish bilan birga, "Yangi yapon muxbiri" jurnalida maqolalar berishni ham boshlab yuboradi. Bundan tashqari Tokiyoda yashayotgan tatar va boshqa musulmon bolalariga din va tarixdan darslar beradi. Yana haftaning muayyan kunlarida turli joylarda va o'zini uyida islom dini haqida konferensiyalar beradi. U vaqtda Abdurashid Ibrohim juda qarib qolgan edi, bo'lmasa Yaponiyada islom dini uchun qiladigan juda ko'p ishlari bor edi.

Abdurashid Ibrohimning islom dini uchun Yaponiyada qilgan eng katta ishi islom dinini yapon parlamentida rasmiy din o'laroq qabul qilinishi edi. 1939-yilga qadar Yaponiyada buddizm, sintoizm, xristianlik, yahudiylikdan boshqa din rasman tan olinmas edi. Bu holat islomni qabul qilgan yaponlar uchun qiyinchilik tug'dirar edi. Bundan tashqari, g'arblik missionerlar islom dini haqida juda ko'p tuhmat va bo'xtonlarni tarqatar edilar. Abdurashid Ibrohim parlamentdagi yapon do'stlari yordami bilan 1939-yil imperator ukasining qarshiligiga qaramasdan islom dinini raman tan oldirishga erishdi va har tarafda tashkilotlar qurilishi uchun ruxsat oldi. Abdurashid Ibrohimning yana bir katta ishi Turkiya elchisi Ahmet Hulusi Beyning yordami bilan yapon dars kitoblarida islom dini va turklar haqida joy olgan bo'limni noto'g'ri yanglish fikrlarni to'g'irlab, yangittan haqiqatga uyg'un ravishda yozdirishi edi. [1, P. 99] Bu ishda unga arabcha va turkchani o'rgatgan do'sti Kiyoka Wakazono yordam bergan. Ayni vaqtda u Tokiyo jomesida imomlik ham qilgan. Shu sabab juda ko'p yapon islom dinini qabul qilgan.

Abdurashid Ibrohim Yaponiyada islom dinini yanada yaxshi tanishlari uchun inglizcha-arabcha bir jurnal chiqarishni harakatida edi, lekin urush sabab va 1944-yil 17-avgust kuni vafot etishi bunga imkon bermadi. Uning vafot xabari yapon bosma va nashr organlari tarafidan Yaponiyaning har tarafiga tarqatildi. Yaponiyaning turli o'lkalaridan janozaga qatnashadiganlarni xohishi bilan janoza uch kun kechiktirildi. Abdurashid Ibrohim Tokiyodagi musulmon qabristoniga dafn etilgan.

References:

1. Ismail Türkoğlu. Sibiryali Meşhur Seyyah Abdürreşid İbrahim. Ankara: Türkiye Diyanet Vakfı, 1997.
2. Abdürreşit İbrahim. Tercüme-i Halim Ya ki Başıma Gelenler. (Haz: Ismail Türkoğlu) İstanbul: Mac Medya, 2017.
3. Ismail Türkoğlu. Rusya Türklerini Uyandırın Adam: Abdürreşid İbrahim // Uluslararası Abdürreşit İbrahim va Turk-Japon İlişkileri Bilgi Soleni Bildiriler. -Konya,
4. İbrahim Maraş. İdil-Ural Türklerinde Cedidcilik (Yenilikçilik) Hareketi: Doktora Tezi. Ankara, 2000.
5. Neslihan Aksoy. Abdürreşid İbrahim'in Düşünce Dünyası ve Gelişimi: Yüksek Lisans Tezi. Ankara, 2019.
6. Ismail Türkoğlu. Rusiya Turklerinden Abdürreşid İbrahim: Yüksek Lisans Tezi, -İstanbul, 1993.



7. Japonya Seyyahi Abdürreşid İbrahim'in İzinde. (muharrir Merthan Dündar). İsmail Türkoğlu. Abdürreşid İbrahim'in Mir'atleri. İstanbul, 2020.
8. Hasan Barlak. Abdürreşid İbrahim'in Japonya'da Hıristian Misyonerliği Karşısındaki Tutumu // Tokat Gaziosmanpaşa Üniversitesi Sosyal Bilimler Araştırmaları Dergisi, Tokat
9. İslam Ansiklopedisi 32cilt. Ankara, Türkiye Diyanet Vakfı.
10. Caner Arabacı. Abdürreşid İbrahim 'in Türkiye Vatandaşlığı Serüveni ve Konya Hayati // Merhaba Akademik Sayfalar, Konya, 290.
11. Ergashev. Sh, Bobomatov. T, Tursunov. N. Jahon mamlakatlari ma'lumotnoma. Toshkent: O'zbekiston, 2013.
12. Japonya Seyyahi Abdürreşid İbrahim'in İzinde. (muharrir Merthan Dündar). Nobuo Misawa. Yeni Kaynaklar ile Abdürreşid İbrahim 'in Japonya'daki Hayati. -İstanbul, 2020.
13. Adem Kaya ve Resul Bağı. Cihanbeyli-Böğrüdelik Köyü Sibirya Tatarları ve Müzik // Türk Dünyası Araştırmaları, -İstanbul